

NAVOIY VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT 2020-yil 1-mart holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 25-sentabrdagi "Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida"gi 274-son qaroriga muvofiq korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri bazasi yuritiladi.

Viloyatimizda oxirgi yillarda tadbirkorlik subyektlariga ko'rsatilayotgan e'tibor

Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida oxirgi yillarda Prezidentimizning ko'plab farmon va qarorlari qabul qilindi.

Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko'plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning joylardagi markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman) devoni tashkil qilindi.


Barcha shahar va tumanlarda tadbirkorlar murojaatlarini qabul qilib, hal etishga ko'maklashadigan Bosh vazir qabulxonalari tashkil etildi. Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshdi.

Oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini yanada rivojlantirish va barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida yaratib berilayotgan shart-sharoitlar vaqulayliklar natijasida faoliyat ko'rsatayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan korxonalar va tashkilotlar soni yildan-yilga sezilarli ravishda oshib bormoqda.

Korxonalar va tashkilotlar to'g'risidagi mazkur ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi Navoiy viloyati boshqarmasi ma'lumotlar bazasi asosida 2020-yil 1-mart holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.

Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni


(1-mart holatiga ko'ra, birlikda)



Navoiy viloyatida qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlash-tirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiiq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Korxonalar va tashkilotlar soni

(2020-yil 1-mart holatiga ko'ra, birlikda)



Yuridik shaxs:

Faoliyat yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da'vogar va javobgar bo'la oladigan tashkilot yuridik shaxs hisoblanadi.

Ro'yxatdan o'tgan tijorat korxonalari soni

(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2020-yil 1-mart holatiga ko'ra, birlikda)

7 942



Mas'uliyati cheklangan jamiyat

3 211



Oilaviy korxonona

72



Unitar korxonona

4 989



Xususiy korxonona

22




Aksiyadorlik jamiyati

120




Boshqalar

mas'uliyati cheklangan jamiyat birlik



xususiy korxonona birlik




Mas'uliyati cheklangan jamiyat


Bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyati mas'uliyati cheklangan jamiyat deb hisoblanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zlari qo'shgan hissalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.

Mas'uliyati cheklangan jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagani ishtirokchilari jamiyat majburiyatlari bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismining qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladilar.


Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1-mart holatiga ko'ra)



Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (1-mart holatiga ko'ra)



Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1-mart holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni

(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2020-yil 1-mart holatiga ko'ra, birlikda)



Aksiyadorlik jamiyati:

Ustav fondi muayyan aksiyalar soniga bo'lingan jamiyat aksiyadorlik jamiyati hisoblanadi;


aksiyadorlik jamiyatining ishtirokchilari (aksiyadorlar) uning majburiyatlari bo'yicha javob bermaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zarar uchun o'zlariga qarashli aksiyalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.

Aksiyalar haqini batamom to'lamagan aksiyadorlar aksiyadorlik jamiyatining majburiyatlari bo'yicha o'zlariga qarashli aksiyalar qiymatining to'lanmagan qismi doirasida solidar javobgar bo'ladilar.


Aksiyadorlik jamiyatining firma nomida jamiyatning nomi hamda bu jamiyat aksiyadorlik jamiyati ekanligi o'z ifodasini topishi kerak.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni


(yanvar-fevral oylarida, birlikda)



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, yanvar-fevral oylarida, birlikda)






Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha tarkibi (2020-yil yanvar-fevral oylarida, umumiy sonidagi ulushi)




2020-yil yanvar-fevral oylarida 895 tadan ortiq korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi. Shundan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 449 ta, xususiy korxonalar – 186 ta, oilaviy korxonalar – 234 ta, muassasalar – 10 ta va boshqalar – 16 tani tashkil etdi.

Qishloq, oʻrmon va baliq xoʻjaligi faoliyati bilan shugʻullanayotgan korxonalar va tashkilotlar tarkibi (1-mart holatiga koʻra)



Sanoat yoʻnalishida faoliyat koʻrsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (2020-yil 1-mart holatiga koʻra, birlikda)




2020-yil 1-mart holatiga koʻra sanoat korxonalarini va tashkilotlari soni 2 949 tani tashkil etib, oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 151,9 % ga oshdi.

Jami sanoat korxonalar va tashkilotlari koʻpayishining asosiy omili (oʻtgan yilning mos davriga nisbatan) ishlab chiqarish (qayta ishlash) sanoatida – 155,4 % ga (jami sanoatdagi ulushi 91,6 %), togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash – 125,0 % ga (jami sanoatdagi ulushi 6,6 %), elektr, gaz, bugʻ bilan taʼminlash va havoni konditsiyalash – 108,3 % ga (jami sanoatdagi ulushi 0,4 %) va suv bilan taʼminlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilitatsiya qilish – 113,9 % ga (jami sanoatdagi ulushi 1,4 %) oʻsishidir.

Qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1-mart holatiga ko'ra, birlikda)




2020-yil 1-mart holatiga ko'ra qurilish sohasida korxonalar va tashkilotlar soni 1 468 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 129,6 % ga oshdi. Jami qurilish sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili bino va inshootlar qurishda – o'tgan yilga nisbatan 86,0 % ga (jami qurilishdagi ulushi 51,9 %), fuqarolik obyektlarini qurish – 87,5 % ga (jami qurilishdagi ulushi 5,7 %), ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari – 162,8 % ga (jami qurilishdagi ulushi 42,4 %) o'sishidir.

Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1-mart holatiga ko'ra, birlikda)

2020-yil 1-mart holatiga savdo sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni 5 420 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 228,0 % ga oshdi.

Jami savdo korxonalar va tashkilotlari soni ko'payishining asosiy omili - avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdoda o'tgan yilga nisbatan – 251,9 % ga (jami savdodagi ulushi 71,6 %), avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdoda o'tgan yilga nisbatan – 175,0 % ga (jami savdodagi ulushi 20,6 %), avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash o'tgan yilga nisbatan – 213,1 % ga (jami savdodagi ulushi 7,8 %) o'sishidir.



- Avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash
- Avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo
- Avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo

Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(2020-yil 1-mart holatiga ko'ra, birlikda)



Sog'liqni saqlash sohasidagi faoliyat
253 ta



Yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash
5 ta



Yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish
13 ta

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(2020-yil 1-mart holatiga ko'ra, birlikda)



86
yashash bo'yicha xizmatlar




1 145
oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar

2020-yil 1-mart holatiga yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni 1 231 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 135,4 % ga oshdi.

Jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar – 131,3 % ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 93,0 %), yashash bo'yicha xizmatlarning – 232,4 % ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 7,0 %) o'sishidir.

Axborot va aloqa sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1-mart holatiga ko'ra, birlikda)



2020-yil 1-mart holatiga axborot va aloqa sohasida korxonalar va tashkilotlar soni 200 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 119,8 % ga oshdi.

Jami axborot va aloqa sohasida korxonalar va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili kino-videofilmlar, televizion dasturlar, fonogrammalar va musiqali yozuvlarni ishlab chiqarish bo'yicha xizmatlar o'tgan yilga nisbatan – 75,0 % ga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 3,0 %);

axborot sohasidagi xizmatlar o'tgan yilga nisbatan – 120,8 % ga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 14,5 %);


noshirlik xizmatlari o'tgan yilga nisbatan – 96,0 % ga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 12,0 %);

dasturlar tuzish va teleradioeshittirishlar bo'yicha xizmatlar – 200,0 % ga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 1,0 %);

kompyuter dasturlashtirish xizmatlari o'tgan yilga nisbatan – 140,9 % ga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 31,0 %);

aloqa xizmatlarning – 118,5 % ga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 38,5 %) o'sishidir.

Oilaviy korxonalar soni (1-mart holatiga ko'ra, birlikda)



Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2020-yilning 1-mart holatiga 3 211 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2 411 taga yoki 4,0 marta oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 3 140 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2 343 taga yoki 3,9 marta oshganligini ko'rish mumkin.


2020-yil yanvar-fevral oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 234 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 155 taga yoki 2,9 marta oshganligini ko'rish mumkin.

Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni (1-mart holatiga ko'ra, birlikda)

Tashkiliy huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2020-yilning 1-mart holatiga 7 942 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2 731 taga yoki 152,4 % ga oshganligini ko'rish mumkin.


Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 7 644 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2 457 taga yoki 147,4 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2020-yil yanvar-fevral oylarida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 449 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 29 taga yoki 106,9% ga oshganligini ko'rish mumkin.



Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni

(2020-yil 1-mart holatiga ko'ra, birlikda)




Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni 2020-yil 1-mart holatiga 226 tani tashkil etib, ulardan 221 tasi yoki 97,8 % i faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 91 taga yoki 70,0 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2020-yil yanvar-fevral oylarida viloyatimizda 12 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi.


Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar-fevral oylarida, birlikda)




Kichik tadbirkorlik subyektlari soni

(2020-yil 1-mart holatiga ko'ra, birlikda)




Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1-mart holatiga ko'ra, birlikda)



Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni (1-mart holatiga ko'ra, birlikda)




Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni (1-mart holatiga ko'ra, birlikda)

	2016-yil	2017-yil	2018-yil	2019-yil	2020-yil
Jami	56	61	64	130	221
<i>shu jumladan:</i>					
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	5	5	7	18	33
Sanoat	44	44	43	77	133
Qurilish	0	1	1	5	13
Savdo	3	4	4	9	19
Tashish va saqlash	2	3	3	3	3
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	0	0	1	5	4
Axborot va aloqa	0	0	0	1	1
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	0	0	0	0	2
Boshqa turlar	2	4	5	12	13

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni

(1-mart holatiga ko'ra, birlikda)




Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni

(1-mart holatiga ko'ra, birlikda)

	2016-yil	2017-yil	2018-yil	2019-yil	2020-yil
Jami	2 699	3 118	3 811	5 187	7 644
<i>shu jumladan:</i>					
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	313	403	605	786	1 051
Sanoat	570	671	805	1 040	1 363
Qurilish	389	430	494	716	1 008
Savdo	708	788	887	1 221	2 368
Tashish va saqlash	223	262	313	421	490
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	127	134	175	268	380
Axborot va aloqa	69	50	46	61	82
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	29	34	54	62	87
Boshqa turlar	271	346	432	612	815

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarni soni (1-mart holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni (1-mart holatiga ko'ra, birlikda)

	2017-yil	2018-yil	2019-yil	2020-yil
Jami	392	549	797	3 140
<i>shu jumladan:</i>				
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	100	141	192	431
Sanoat	97	116	187	786
Qurilish	3	9	8	46
Savdo	73	93	138	1 255
Tashish va saqlash	6	7	8	21
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	78	123	179	367
Axborot va aloqa	3	3	10	25
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	5	9	15	28
Boshqa turlar	27	48	60	181


Navoiy viloyatida MDH davlatlarining kapitali ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni (2020-yil 1-mart holatiga ko'ra, birlikda)

	Jami	shundan:	
		qo'shma korxonalar	xorijiy korxonalar
Rossiya Federatsiyasi	42	27	15
Qozog'iston Respublikasi	8	5	3
Ozarbayjon Respublikasi	2	2	-
Qirg'iz Respublikasi	1	1	-
Tojikiston Respublikasi	5	3	2
Turkmaniston Respublikasi	4	3	1
Ukraina Respublikasi	1	1	-
Belarus Respublikasi	-	-	-
Armaniston Respublikasi	-	-	-
Moldova Respublikasi	-	-	-

O'zbekiston MDH doirasida amaldagi o'zaro savdo tartibini yomonlashtirmaydigan tamoyillarga asoslangan, to'laqonli erkin savdo hududini tashkil etish tarafdoridir. Bu MDH hududida barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashda muhim omil bo'lmoqda.


Bugungi kunda Navoiy viloyati hududida MDH davlatlarining kapitali ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni oshib borayotganini inobatga olganda ularning asosiy ulushi (jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar nisbatan) Rossiya Federatsiyasi 19,0 %, Qozog'iston Respublikasi 4,1 %, Ozarbayjon Respublikasi 0,9 %, Turkmaniston Respublikasi 1,8 % va Tojikiston Respublikalarida 2,3 % ga to'g'ri kelmoqda.

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning davlatlar kesimida soni (2020-yil 1-mart holatiga ko'ra, birlikda)




Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1-mart holatiga ko'ra, birlikda)



Shahar va tumanlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (2020-yil 1-mart holatiga ko'ra, birlikda)



Shahar va tumanlar kesimida qaralganda, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar sonining asosiy qismi Navoiy shahri (4 201 ta), Karmana (2 856 ta), Qiziltepa (2 240 ta), Xatirchi (2 206 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.


Shahar va tumanlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni (2020-yil 1-mart holatiga, birlikda)

	Jami	shundan:	
		qo'shma korxonona	xorijiy korxonona
Navoiy viloyati	221	140	81
Navoiy sh.	75	54	21
Zarafshon sh.	16	10	6
tumanlar:			
Konimex	8	6	2
Qiziltepa	15	10	5
Navbahor	8	6	2
Karmana	53	34	19
Nurota	20	11	9
Tomdi	7	6	1
Uchquduq	9	1	8
Xatirchi	10	2	8

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning asosiy qismi Navoiy shahrida 75 ta (umumiy miqdoridagi ulushi 33,9 %), Zarafshon shahrida 16 (7,2 %), Karmana 53 ta (24,0 %), Nurota 20 tani (9,0 %), Qiziltepa 15 ta (6,8 %), Xatirchi 10 ta (4,5 %), Uchquduq tumanlarida 9 ta (4,1 %) tashkil etadi.

Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

(2020-yil 1-mart holatiga, birlikda)




2020-yil 1-mart holatiga ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda Navoiy (25,1 %) va Zarafshon (7,9 %) shaharlari, Karmana (16,0 %), Qiziltepa (12,3 %), Xatirchi (12,1 %), Navbahor (9,5 %), Nurota (7,4 %), Uchquduq (4,4 %), Konimex (3,6 %), Tomdi (1,7 %) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning shahar va tumanlar bo'yicha soni


(2020-yil yanvar-fevral oylarida, birlikda)

2020-yil yanvar-fevral oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda Navoiy (23,4 %) va Zarafshon (7,4 %) shaharlarida, Xatirchi (17,0 %), Karmana (15,0 %), Qiziltepa (11,5 %), Uchquduq (8,0 %), Navbahor (6,1 %), Nurota (4,8 %), Konimex (3,6 %), Tomdi (3,2 %) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.




Shahar va tumanlar kesimida har 1 000 oilaga to‘g‘ri keladigan tadbirkorlik subyektlari soni¹⁾

(2020-yil 1-mart holatiga ko‘ra, birlikda)




Shahar va tumanlar kesimida har 1 000 aholiga to‘g‘ri keladigan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni²⁾

(2020-yil 1-mart holatiga ko‘ra, birlikda)




¹⁾ 2019-yil 1-yanvar holatiga tumanlar (shaharlar) fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo‘yicha kengashlari ma’lumotlari asosida jamlangan.
²⁾ Doimiy aholi soni 2020-yil 1-yanvar holatiga shakllantirilgan

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarning shahar va tumanlar kesimida soni (2020-yil 1-mart holatiga ko'ra, birlikda)




Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning shahar va tumanlar kesimida soni (2020-yil 1-mart holatiga ko'ra, birlikda)



2020-yil 1-mart holatiga faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarini shahar va tumanlar kesimida taqsimlanganda Navoiy (29,6 %) va Zarafshon (5,6%) shaharlari, Qiziltepa (16,5 %), Karmana (16,2 %), Navbahor (8,1 %), Uchquduq (6,9 %), Xatirchi (6,9 %), Nurota (6,2 %), Konimex (2,5 %), Tomdi (1,5 %) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.

Shahar va tumanlar kesimida jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning qo‘shma korxona va xorijiy korxonalarga taqsimlanishi

(2020-yil 1-mart holatiga ko‘ra, jamiga nisbatan ulushi, %)




2017-2021 yillarda rivojlanishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha “Harakatlar strategiyasi”ning uchinchi muhim yo‘nalishi - **xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish** hisoblanadi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonini o‘sib borishi, eng avvalo, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining qonuniy asoslari takomillashib borayotgani bilan izohlanadi.

Shahar va tumanlar kesimida oilalar va faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni, birlikda


	Oilalar soni ^{*)}	Tadbirkorlik subyektlari soni	
		01.03.2019-yil	01.03.2020-yil
Navoiy viloyati	261 472	9 754	15 636
Navoiy sh.	44 361	2 972	3 681
Zarafshon sh.	22 157	631	1 288
<i>tumanlar:</i>			
Konimex	7 790	257	528
Qiziltepa	38 834	1 057	2 002
Navbahor	27 846	853	1 518
Karmana	37 996	1 819	2 610
Nurota	22 579	798	1 178
Tomdi	2 395	133	247
Uchquduq	10 918	351	686
Xatirchi	46 596	883	1 898

Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining shahar va tumanlar bo'yicha soni (2020-yilning yanvar-fevral oylarida, birlikda)




2020-yil yanvar-fevral oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar shahar va tumanlar kesimida taqsimlanganda Navoiy (19,2%) va Zarafshon (2,6%) shaharlari, Xatirchi (35,0%), Karmana (18,8%), Navbahor (12,4%), Konimex (4,7%), Nurota (3,4%), Qiziltepa (2,1%), Tomdi (1,7%) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

Shahar va tumanlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni (2020-yilning yanvar-fevral oylarida, birlikda)



O'tgan yilga nisbatan % da



Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri - axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqti-vaqti bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.


Ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlar - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar - O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 24-avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275-son qarorining 1-ilovasiga muvofiq kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri



The screenshot displays the official website of the State Statistical Service of the Republic of Uzbekistan (UZSTAT). The main header features the national emblem and the text 'O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT STATISTIKA QO'MITASI'. A navigation menu includes 'ASOSIY SAHIFA', 'QO'MITA HAQIDA', 'AXBOROT XIZMATI', 'INTERAKTIV XIZMATLAR', 'OCHIQ MA'LUMOTLAR', 'MUHOJATLAR', and 'KONTAKTLAR'. The main content area is titled 'INTERAKTIV XIZMATLAR / KTYaDR ma'lumotlari'. A dropdown menu is open, listing services such as 'Elektron hisobot', 'KTYaDR ma'lumotlari', 'Uslubiy materiallar', 'Statistik klassifikatsiyalar', 'Taqqim etiladigan hisobotlar ro'yxati', and 'Korxonalar pasporti'. The 'Korxonalar pasporti' form is visible, with fields for 'STIR kodini kiriting' (containing '99831k') and 'Rasmdagi kodni kiriting'. A 'Qidiruv' button is located at the bottom right of the form. On the left, there is a 'RASMIY STATISTIKA' sidebar with links to 'E'lon qilish taqvimi', 'Metama'lumotlar', 'Makroko'rsatkichlar', 'Milliy hisoblar', 'Narx va indekslar', and 'Investitsiyalar'. On the right, there is a 'FOYDALI MA'LUMOTLAR' sidebar with links to 'Aholini ro'yxatga olish-2022', 'Harakatlar strategiyasi', 'Press-revizlar', 'Choraklik natijalar', 'Nashrlar - statistika haqida', and 'Uslubiy materiallar'.

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining www.stat.uz va Navoiy viloyati statistika boshqarmasining www.navstat.uz rasmiy saytlarida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

Navoiy viloyati statistika boshqarmasi
Statistik registrarni
yuritish bo'limi
Tel.:71 230 84 56

